



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 5-avgust

382-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 31-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot chiqindilaridan muqobil issiqlik energiyasi ishlab chiqarish” investitsiya loyihasini amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 17-iyuldagi PQ-263-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 348-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot chiqindilaridan muqobil issiqlik energiyasi ishlab chiqarish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 17-iyuldagi PQ-263-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 31-iyuldagi 348-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 31-iyuldagi 348-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning, shu jumladan, tibbiyot chiqindilarining atrof-muhitga va aholi salomatligiga salbiy ta‘sirini kamaytirish, shuningdek, ularni qayta ishlash sohasida zamonaviy yechimlar va texnologiyalarni joriy etish maqsadida quyidagilar:

a) “Sayar LLC” kompaniyasi (Amerika Qo‘shma Shtatlari) (keyingi o‘rinlarda – Investor) tomonidan “Tibbiyot chiqindilaridan muqobil issiqlik energiyasi ishlab chiqarish” investitsiya loyihasi (keyingi o‘rinlarda – Investitsiya loyihasi) doirasida “Sayar green” mas‘uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxonasi (keyingi o‘rinlarda – Loyiha kompaniyasi) ta‘sis etilganligi;

b) Investor, Loyiha kompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi o‘rtasida 2024-yil 13-aprelda investitsiya shartnomasi imzolanganligi hamda unga muvofiq Investor va Loyiha kompaniyasi:

birinchi bosqichda, 2024-2025-yillar davomida 7 million AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etib, Toshkent shahri, Samarqand va Buxoro viloyatlarining barcha turdagi tibbiyot muassasalarida yiliga hosil bo‘ladigan 6 ming tonna tibbiyot chiqindilarini termik qayta ishlab, 20 GVt soat/yil quvvatga ega uskunalarni ishga tushirishi;

ikkinchi bosqichda, 2026-2030-yillar davomida 108 million AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etib, respublikaning qolgan hududlarida joylashgan barcha turdagi tibbiyot muassasalarida yiliga hosil bo‘ladigan 90 ming tonna tibbiyot chiqindilarini termik qayta ishlab, 300 GVt soat/yil quvvatga ega uskunalarni ishga tushirishi;

Investorning takliflariga muvofiq Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga (keyingi o'rinlarda - Ekologiya vazirligi) tegishli maishiy chiqindi poligonlari hamda maxsus tashkil etiladigan joylarda farmatsevtika, biologik, veterinariya chiqindilarini yuqori haroratda, termik qayta ishlash markazlarini tashkil etish majburiyatini olishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

Investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida Investor, Loyiha kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi o'rtasida tuzilgan Investitsiya shartnomasi tasdiqlanganligi;

Sog'liqni saqlash vazirligi Loyiha kompaniyasi bilan birgalikda bir oy muddatda:

Investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan hududlarda joylashgan barcha turdagi tibbiyot muassasalarida hosil bo'ladigan tibbiyot chiqindilari Loyiha kompaniyasiga to'liq yetkazib berilishini;

tibbiyot chiqindilarini termik qayta ishlash hisobiga ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi Investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan davlat tibbiyot muassasalari tomonidan sotib olinishini;

Investitsiya loyihasini amalga oshirish muddati tugagandan so'ng ushbu loyiha doirasida xarid qilingan asbob-uskunalar, qurilma va jihozlar tegishli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishilgan holda, mahalliy hamkor tashkilotlarga bepul o'tkazib berilishini nazarda tutuvchi shartnoma imzolanishini ta'minlashi;

belgilanishicha, 2024-yil 1-avgustdan boshlab:

a) Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan:

tibbiyot chiqindilaridan muqobil issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun barcha turdagi tibbiyot muassasalarida hosil bo'ladigan tibbiyot chiqindilari to'liq hajmda Loyiha kompaniyasiga topshirilishi;

Loyiha kompaniyasiga 2048-yilga qadar Investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan davlat tibbiyot muassasalari hududidan tibbiyot chiqindilarini termik qayta ishlash hamda issiqlik energiyasi ishlab chiqarish qurilma va inshootlarini qurish uchun yer maydonlari jamoat ehtiyojlari uchun ijaraga berilishi ta'minlanishi, bunda, yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtirilgan miqdorda hisoblanishi;

Loyiha kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi belgilangan tartibda tasdiqlangan tariflarda tibbiyot muassasalari tomonidan sotib olinishi ta'minlanishi, bunda issiqlik energiyasi boshqa shaxslarga ham belgilangan tartibda yetkazib berilishi mumkinligi;

b) Investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan hududlarda joylashgan barcha turdagi tibbiyot muassasalarida hosil bo'ladigan tibbiyot chiqindilarini Loyiha kompaniyasiga to'liq yetkazib berish bo'yicha talabga rioya etmaslik sanitar osoyishtalik va chiqindilarni to'plash, tashish, joylashtirish, zararsizlantirish, saqlash, utilizatsiya qilish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish davomida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzganlik hisoblanishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi Loyiha kompaniyasi bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrdan boshlab har yili respublika va mahalliy budjetlar parametrlari tasdiqlanishidan avval Loyiha kompaniyasi tomonidan ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan yangi narxlarni (tariflarni) qayta ko'rib chiqish amaliyotini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-iyuldagi PQ-263-son qarori ilovasida belgilangan sxemaga muvofiq joriy etishi;

Loyiha kompaniyasiga Investitsiya loyihasining birinchi bosqichi doirasida belgilangan shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya qilgan holda, parallel loyihalash bilan qurilish-montaj ishlarini bajarishga ruxsat etilganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrdan boshlab har yili tibbiyot muassasalarida hosil bo'ladigan tibbiyot chiqindilarining Loyiha kompaniyasiga to'liq yetkazib berilganligi hamda issiqlik energiyasining davlat tibbiyot muassasalari tomonidan sotib olinganligi uchun to'lanadigan mablag'larning Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutilishini ta'minlab borishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi va Sog'liqni saqlash bo'limi (O.Qoldoshev) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-iyuldagi PQ-263-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil etsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish tumanhokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov